

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

1-МАХСУС СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ
СПЕЦИАЛЬНЫЙ НОМЕР-1

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES
SPECIAL ISSUE-1



ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES
№ SI-1 (2024) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9556-2024-SI-1>

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:
Сеитов Азамат Пулатович
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:
Сабилова Умида Фархадовна
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

22.00.01–Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Бекмурадов Мансур Бобомурадович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Каланов Комил Куллахматович
кандидат социологических наук, профессор (Узбекистан)
Убайдуллаева Раиса Турсуновна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Негматова Шахзода Шухратовна
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Исмаилов Алишер Агзамович
доктор экономических наук, (Узбекистан)

Щепилова Галина Германовна
доктор философских наук, профессор (Россия)
Рожанский Михаил Яковлевич
кандидат философских наук (Россия)
Маматов Нормурат
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Камалова Хатира Сабыровна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)
Фофуров Низомжон Октябрович
кандидат исторических наук, доцент (Узбекистан)

22.00.02–Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Умаров Абсалом Адилевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Холбеков Абдугани Жуманазарович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Шайхисламов Рафаэль Бадретдинович
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Акулич Мария Михайловна
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Каримов Бобир Шаропович
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Сабиров Алишер Сабирович
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)
Ахмедова Феруза Медетовна
доктор философии по социологическим наукам (PhD)
(Узбекистан)

Антонио Алонсо Марсос
доктор политических наук, профессор (Испания)
Фадеева Любовь Александровна
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Виктор Агаджаньян
доктор философии по социологическим наукам (США)
Тагиева Гулсум Гафуровна
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)
Муйдинова Моҳи́ра Муқомжоновна
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)
Ходжаев Собир Джумаевич
доктор философии по социологическим наукам (PhD)
(Узбекистан)
Алимухамедова Нодира Ядгаровна
доктор философии по социологическим наукам (PhD)
(Узбекистан)

22.00.03–Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Аликариев Нуритдин Сапаркариевич
доктор экономических наук, профессор (Узбекистан)
Матибаев Тасполат Балтабаевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Николов Стефан
доктор философии по социологическим наукам, (Болгария)
Бурнашев Рустам Ренатович
кандидат философских наук, профессор (Казахстан)
Пармонов Фарход Ярашевич
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Акрамов Хусан Фуркатович
доктор философии по социологическим наукам (PhD)
(Узбекистан)

Ли Ци
доктор исторических наук, профессор (Китай)
Сухомлинова Марина Валерьяновна
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Қаюмов Қахрамон Нозимжонович
доктор философии по социологическим наукам (PhD)
(Узбекистан)
Доспанова Дилара Уракбаевна
кандидат филологических наук, доцент (Узбекистан)
Рахимбаева Дилбархон Абдулхамитовна
кандидат философских наук, доцент (Узбекистан)
Якубов Ильдар Харасович
кандидат политических наук, и.о. доцент (Узбекистан)

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

1. Сеитов Азамат РАЗВИТИЕ СОЦИОЛОГИИ В УЗБЕКИСТАНЕ: ОТ ПРОШЛОГО К ПЕРСПЕКТИВНОМУ БУДУЩЕМУ.....	5
2. Sabirova Umida SOTSIOLOGIK MONITORING YARATISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI.....	12
3. Алексеева Виктория КОНЦЕПЦИИ ГЕНДЕРНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ В АНАЛИЗЕ ДИНАМИКИ СОЦИАЛЬНОЙ МОБИЛЬНОСТИ.....	21
4. Kayumov Kaxramon KICHIK SHAHARLARNI ILMIY O'RGANISHNING SOTSIOLOGIK JIHLTLARI.....	30
5. Alikariyeva A'loxon TA'LIM SIFATI BOShQARUVIGA NAZARIY YONDASHUVLAR TAHLILI.....	36
6. Mannanova Nilufar DAVLAT XIZMATCHILARINI MERITOKRATIK YONDOSHUV ASOSIDA TANLASH – JAMIYATDA ADOLAT TAMOIYILI QAROR TOPISHINING MUHIM MASALASI SIFATIDA.....	44
7. Mo'minov Zokirjon IJTIMOIY MOBILLIK OMILINI TADQIQ ETISHNING METODOLOGIK JIHLTLARI.....	51
8. Jiyanmuratova Gulnoz YOSHLARNING SIYOSIY INSTITUTLARGA NISBATAN ISHONCHI MUAMMOSI: NAZARIY ASOSLAR.....	58
9. Сеитов Мансур МОЛОДЕЖНАЯ ПОЛИТИКА В ФОРМИРОВАНИИ ЖИЗНЕННЫХ ПОЗИЦИЙ МОЛОДЕЖИ: ОТЕЧЕСТВЕННЫЙ ОПЫТ.....	66
10. Узакова Зарина СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ СОЦИАЛЬНОЙ ЗАЩИТЫ: ОТ СОЦИАЛЬНОЙ К БИОПСИХОСОЦИАЛЬНОЙ МОДЕЛИ ИНВАЛИДНОСТИ.....	74
11. Ziyayeva Xolida AGRESSIV XULQ-ATVORNI O'RGANISHGA QARATILGAN NAZARIYALAR TAHLILI.....	80
12. Imomova Nozimaxon MEHNAT MIGRATSIIYASINI VUJUDGA KELISHI VA TRANSFORMATSIYALASHUVINING IJTIMOIIY OMILLARI.....	88
13. Shokirov Shaxrizod HUQUQBULARLIK VA JINOYATCHILIKNI OLDINI OLISHDA JAMOATCHILIK BILAN HAMKORLIKDA ISHLASH.....	93

14. Ixtiyarov Farxod INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH – IJTIMOYIY BARQARORLIK VA TARAQQIYOT OMILI.....	102
15. Akramov Xasan YANGI O‘ZBEKISTONNING SPORT STRATEGIYASINI SHAKLLANTIRISHDA NORMATIV-HUQUQIY BAZASINING SOTSIOLOGIK TAHLILI.....	108
16. Kalanova Sabohat JAMIYATDA AVLODLAR ALMASHINUVI JARAYONLARI IJTIMOYIY HODISA SIFATIDA.....	117
17. Axrorov Zohidjon O‘ZBEKISTONDA IJTIMOYIY HODIM KASBINING JORIY ETILISHI, IJTIMOYIY SIYOSATNING AMALIY NATIJASI SIFATIDA.....	126
18. Xujanov Zafar KAMBAG‘ALLIK SABABLARI VA UNI QISQARTISHGA TA‘SIR ETUVCHI OMILLARI.....	132
19. Turanazarov Umid KASBIY KOMPETENTLIK MOHIYATI VA RIVOJLANTIRISHNING OMILLARI.....	138
20. Kaxarova Nilufar SHAXAR MEGOPOLISIDAGI AYOLLAR MEHNAT MIGRATSIYASINING MUAMMOLARI VA IMKONIYATLARI.....	145
21. Хакимова Анора ОСОБЕННОСТИ РАБОТЫ С МОЛОДЫМИ СПЕЦИАЛИСТАМИ В ОРГАНИЗАЦИИ.....	154
22. A‘zamxonov Saidabzalxon TALABALAR MUSTAQIL TA‘LIM OLIHINI OSHIRISHNING NAZARIY ASOSLARI.....	163
23. Ro‘zimatov Elbek VOLONTYORLIK HARAKATINING NAZARIY TAHLILI.....	170
24. Masharipov Baxtiyar SHAHAR INFRATUZILMASINING FUNKSIONAL XUSUSIYATLARI.....	177
25. Muzaffarov San‘atbek VOLONTYORLIK HARAKATI – EZGULIK VAKSINASI.....	185
26. Yo‘ldashev Shoxrux YOSHLAR BUGUNGI KUN RIVOJLANISHI SHAROITIDA MADANIY-HUQUQIY MUHITNING SUBYEKTI VA OBYEKTI SIFATIDA.....	190


ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

Каюмов Кахрамон,

О'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasini mudiri
Sotsiologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
e-mail: nqayumov@inbox.ru

KICHIK SHAHARLARNI ILMIIY O'RGANISHNING SOTSIOLOGIK JIHATLARI

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.10800122>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada kichik shaharlar ijtimoiy infratuzilmasini, uning ijtimoiy hayotga ta'sirini sotsiologik jihatlarini yoritishga harakat qilingan. Dunyodagi kichik shaharlarning salmog'i dunyo iqtisodiyotiga bevosita o'z ta'sirini ko'rsatadi. Mazkur shaharlar aholisining turmush tarzi, tibbiyot va sog'liqni saqlash tizimi, ma'rifat hamda ta'lim, madaniyat-sa'nat, jismoniy tarbiya-sport, turizm-dam olish sohasi, biznes-savdo tashkilotlari, umumiy ovqatlanish muassasalari, transport-aloqa xizmatlari, maishiy xizmat ko'rsatish xizmatlari, uy-joy shuningdek, kommunal xo'jalik xizmatlarining sifatiga bog'liq. Shu nuqtai nazardan olib qaraganda ko'tarilayotgan muammo dolzarb bo'lib, ushbu mavzuni o'rganish va uni sotsiologik jihatdan tahlil qilish orqali samaradorlikka erishish maqolada o'z aksini topgan.

Kalit so'zlar: kichik shahar, infratuzilma, ta'lim, sog'liqni saqlash, ijtimoiy xizmatlari, kommunikatsiya, ijtimoiy xizmat.

Каюмов Кахрамон,

Университет журналистики и массовых коммуникаций Узбекистана
заведующий кафедрой Социально-гуманитарных наук
доктор философии (PhD) по социологии
e-mail: nqayumov@inbox.ru

СОЦИОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ НАУЧНОГО ИЗУЧЕНИЯ МАЛЫХ ГОРОДОВ

АННОТАЦИЯ

В данной статье предпринята попытка осветить социальную инфраструктуру малых городов и социологические аспекты ее влияния на общественную жизнь. Вес малых городов в мире оказывает прямое влияние на мировую экономику. От качества услуг связи, бытовых услуг зависит образ жизни жителей этих городов, медицина и система здравоохранения, просвещение и образование, культура и искусство, физкультура и спорт, туризм и отдых, организации бизнеса и торговли, предприятия общественного питания, транспорт, жилищно-коммунальные услуги. С этой точки зрения возникающая проблема является актуальной, и в статье отражена эффективность изучения данной темы и ее социологического анализа.

Ключевые слова: малый город, инфраструктура, образование, здравоохранение, социальные услуги, коммуникация, социальное обслуживание.

Kayumov Kahramon,
Uzbekistan journalism and Mass Communications
head of the Department of social and humanitarian
Sciences of the University Doctor
of philosophy in sociology (PhD)
e-mail: nqayumov@inbox.ru

SOCIOLOGICAL ASPECTS OF THE SCIENTIFIC STUDY OF SMALL TOWNS

ABSTRACT

This article makes an attempt to highlight the social infrastructure of small towns and the sociological aspects of its influence on public life. The weight of small cities in the world has a direct impact on the global economy. The quality of communication services and household services determines the lifestyle of the residents of these cities, medicine and the healthcare system, education and culture, culture and art, physical education and sports, tourism and recreation, business and trade organizations, public catering establishments, and transport, housing and communal services. From this point of view, the emerging problem is relevant, and the article reflects the effectiveness of studying this topic and its sociological analysis.

Keywords: small town, infrastructure, education, healthcare, social services, communications, social services.

КИРИШ

2024-yil 20-fevralda er yuzi aholisi 8 milliard 92 million 487 ming 872 taga kishiga etdi [1]. Shundan shahar aholisi 51%ni, qishloq aholisi 49% ni tashkil etadi. “Jahondagi shaharlarning 50% kichik shaharlar bo‘lib, ularda shahar aholisining qariyb 20%i istiqomat qiladi” [2]. Jahonning yirik ilmiy markazlarida kichik shaharlarning ijtimoiy infratuzilmasini boshqarish va rivojlantirish mexanizmlari borasida bir qator tadqiqotlar olib borilgan.

Mamlakatimizning 81 ta kichik shaharlarida istiqomat qilayotgan aholining turmush darajasini yaxshilash, ularda sanoat zonalarini tashkil qilish, aholi uchun arzon uy-joylar qurish, transport kommunikatsiya tizimini yangilash, ta‘lim muassasalari faoliyatini takomillashtirish, er islohotlarida samaradorlikka erishish masalasiga alohida e‘tibor qaratilmoqda. “Eng muhim masalalardan biri sifatida uy-joy masalasini hal etish, aholiga qulay yashash sharoitlarini yaratish doimiy e‘tiborimiz markazida bo‘ladi. Ushbu yo‘nalishda qabul qilgan dasturlarimiz, jumladan, arzon uy-joylar dasturi asosida so‘nggi besh yilda 140 mingdan ziyod yangi kvartira (xonadon) va yakka tartibdagi uy-joylar barpo etildi. Bu oldingi besh yilga nisbatan 10 barobar ko‘p uy-joy qurildi, deganidir. Ana shunday ishlarimiz ko‘lamini yanada kengaytirib, kelgusida hududlarimizda 1 milliondan ortiq aholi uchun barcha qulaylik va ijtimoiy infratuzilmaga ega bo‘lgan “Yangi O‘zbekiston” massivlarini bunyod etamiz” [3]. Darhaqiqat bu massivni qurish jarayonlari bugungi kunda boshlandi. Yuqoridagilarni e‘tiborga oladigan bo‘lsak ushbu muammoni o‘rganish dolzarblik kasb etadi.

METODOLOGIYA

Bugungi kunda urbanizatsiya jarayonlari mamlakatimizda kundan kunga rivojlanib bormoqda. Ushbu urbanizatsiya jarayoni kichik shaharlar salmog‘ini ko‘payishiga olib keladi. Bu o‘z navbatida ushbu jarayon natijasida vujudga keladigan imkoniyatlar bilan bir qatorda muammolarni ham o‘rganish zaruriyatini tug‘diradi. Kichik shaharlar qishloq va katta shaharlar o‘rtasida ko‘prik vazifasini bajaruvchi ob‘ekt hisoblanadi. Sotsiologlar tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlar shuni ko‘rsatadiki, mamlakatimizda mavjud kichik shaharlarda ishsizlik darajasi qishloqlardagiga nisbatan yuqori ko‘rsatkichni namoyon etmoqda. Ayniqsa, aholini uy-joy bilan ta‘minlanganlik darajasi, ijtimoiy infratuzilma, ishlab chiqarish, xizmat turlarini yo‘lga qo‘yilishi va boshqaruvdagi

muammolar tufayli kichik shaharlarni rivojlantirish ancha qiyin kechmoqda. Bu o'z navbatida ushbu muammoni ilmiy o'rganish va tahlil qilish, unga echim topish kabi vazifalarni sotsiolog olimlarni oldiga qo'ymoqda.

Sotsiologiya tarixida ijtimoiy voqelikni aniqlash orqali jamiyatni o'zgartirish muammolarini o'rganish dolzarb ahamiyatga ega bo'ldi. Ushbu muammolarni o'rgangan olimlardan X.Bekker [4, – P.136], E.Giddens [5, – B. 846], P.Burde [6, – C.278] larning qarashlari shaharlarni tadqiq qilishda o'ziga xos ijtimoiy muammolarning tahlil qilinganligi bilan alohida ajralib turadi.

ASOSIY QISM

Buyuk sohibqiron Amir Temur “Temurning tuzuklari”da “Har bir shaharda masjidlar, madrasalar, xonaqohlar qurishni, musofir yo'lovchilar uchun yo'l ustiga rabotlar bino qilishni, daryolar ustiga ko'priklar qurishni buyurdim” degan g'oyalari ilgari surilgan. Demak, bobomiz sohibqiron shaharlar qurilishi va undagi infratuzilma ob'ektlariga alohida e'tibor qaratgan. Mamlakatimizda kichik shaharlarining ijtimoiy infratuzilmasini boshqarish va ularni rivojlantirish muammolarining nazariy-metodologik jihatlari, uning infratuzilmasi va boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish orqali yaqin hamda uzoq kelajakdagi istiqbolini prognozlash sotsiologik nuqtai nazardan kompleks tarzda tadqiq etilmagani bizni mazkur mavzuni ilk marotaba ilmiy jihatdan o'rganishga undadi.

Birinchidan, kichik shaharlar ijtimoiy infratuzilmasini boshqarishda P.Burdening ijtimoiy sohalar nazariyasi, rivojlantirishda E.Giddensning tizimli funksionalizmi, ijtimoiy faollikni oshirishda P.Sorokinning ijtimoiy harakatchanlik nazariyasi orqali aholining statik, funksional, tadrijiy, sotsiologik jihatlari aniqlash;

Ikkinchidan, kichik shaharlardagi mikromuhit (oila, mahalla, ta'lim muassasalari)ning ob'ektiv parametrlari (boshqaruv faoliyatini amalga oshirish) orqali shaxs ijtimoiylashuvining o'ziga xos xususiyatlari insonning shaxsiy va ijtimoiy faoliyat sub'ekti ekanligi ochiqlash;

Uchinchidan, kichik shaharlarning madaniy salohiyatini rivojlantirishga doir investitsiyalar kiritish, shaharlararo o'zaro hamkorlik orqali sotsial strukturasi kuchaytirish, sotsiomadaniy muhit samaradorligini oshirishga qaratilgan pragmatik loyihalarni ishlab chiqish zarurati asoslanishi;

To'rtinchidan, katta va kichik shaharlar o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlashda qo'shma ta'limni joriy etish orqali inson kapitalini rivojlantirish, shahar madaniyatini yuksaltirish, fuqarolarning ijtimoiy faolligini oshirish, mehnat va maishiy mobilligini ta'minlash asoslash muxim ahamiyat kasb etadi.

Bizning fikrimizcha, bugungi kunda katta yoki o'rta shaharlar kabi kichik shaharlarga ham ijtimoiy-iqtisodiy tomondan munosib shart-sharoit yaratib berish, mazkur sotsial tipdagi shaharlar uchun ishlab chiqarish va ijtimoiy ob'ektlarni joylashtirish uchun qulay investitsiya muhiti hamda shart-sharoitlarni yaratish, er uchastkalari bozorini shakllantirish, maqsadli moliya mablag'larini yo'naltirish dolzarb muammolardan hisoblanadi. Shuningdek, kichik shaharlar barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash maqsadida mavjud tabiiy-iqtisodiy salohiyatdan, byudjet va byudjetdan tashqari manbalardan hamda erkin iqtisodiy zonalar, ayniqsa, kichik sanoat zonalarini imkoniyatlaridan samarali foydalanish, shahar hokimliklari mustaqilligi va mas'uliyatini oshirish, xalqaro standartlar va reytinglar bilan uyg'unlashtirgan holda shahar aholisi sonining statistik hisobini yuritishni takomillashtirish muhim muammolar sirasiga kiradi. Shu boisdan ham “Mamlakatimizda erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilik bazasi shakllantirildi, ma'muriy funksiyalarni nomarkazlashtirish hamda erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalarining ma'muriy kengashlari vakolatlarini kengaytirish orqali ularning faoliyatini boshqarish mexanizmi soddalashtirildi” [7].

Bizning nazarimizda, bugungi kunda kichik shaharlar ijtimoiy infratuzilmasini boshqarish va rivojlantirishda quyidagi masalalarga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiq:

kichik shaharlar tizimida aholining sog'ligini saqlash maqsadida ixtiyoriy va majburiy tibbiy sug'urta tizimini zamonaviy talablar asosida shakllantirish hamda bu jarayonda davlat-xususiy aralash modelini joriy qilish, ayniqsa, xususiy xizmat ko'rsatuvchi tibbiyot muassasalarining faoliyatini yanada rivojlantirish, aholining kam ta'minlangan qatlamiga davlat tomonidan e'tibor qaratilishi ahamiyatga molik;

kichik shaharlar tizimida ijtimoiy siyosatni yanada faollashtirishda inson kapitalini alohida hisobga olish, xususiyl xizmat ko'rsatuvchi tadbirkorlar faoliyatini muntazam rag'batlantirib borish, barcha uchun bir xil bepul davlat ta'limini saqlab qolish bilan bir qatorda bu tizimni jahon ta'lim tizimi talablari darajasiga olib chiqish, yuqori malakali ishchi kuchlarini eksport qilish muhim ahamiyatga ega;

kichik shaharlar ijtimoiy infratuzilmasini boshqarish va rivojlantirishning intellektual hamda madaniy omillariga alohida e'tibor qaratish, buning uchun intellektual xizmatlarni jonlantirish, yosh avlodni san'at va ijodga bo'lgan yuqori darajadagi talablarini muntazam hisobga olish;

kichik shaharlar tizimida ekologiya sohasida olib borilayotgan islohotlarni yanada jadallashtirish, bu yo'nalishdagi muammolarni bartaraf etishda davlat cheklov choralarini oshirish va aholi e'tiborini ekologiyaga qaratish hisobidan yig'iladigan mablag'larni ratsional yo'l bilan oshirish yo'llarini izlash hamda tabiatdan asrab-avaylashga qaratilgan harakatlar, turli darajadagi loyihalarni joriy qilish, bu sohaga ham ilm-fan, texnologiya va innovatsiyalarni muntazam jalb qilish;

xalqaro kompaniyalar va mutaxassislarini jalb qilish orqali O'zbekiston kichik shaharlar ijtimoiy infratuzilmasini boshqarish hamda rivojlantirish maqsadida innovatsion markazlarni yaratish va rivojlantirish, mavjud infratuzilmani zamonaviylashtirish, kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash, ishlab chiqarish tizimini mahalliyashtirish siyosatini muntazam yo'lga qo'yish, davlat-xususiyl sherikchilikni yangi bosqichga olib chiqish shular jumlasidandir. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, kichik shaharlar ijtimoiy infratuzilmasini boshqarish va rivojlantirish mexanizmlarini ishlab chiqish bu kichik shaharlarni boshqarish hamda rivojlantirish uchun asos vazifasini bajardi.

O'zbekistonda zamonaviy taraqqiyot sharoitida kichik shaharlarda ijtimoiy infratuzilmani boshqarishning holati va sotsial mexanizmlar, ularni boshqarishdagi ijtimoiy munosabatlarning sotsial indikatorlari, kichik shahar aholisining turmush tarzi: ijtimoiy amaliyot va hal qiluvchi ijtimoiy-siyosiy omillar masalalari ilmiy nuqtai-nazardan ochib berilgan. Mustaqillik yillarida kichik shaharlarda ham mavjud korxonalar asosida qo'shma korxonalar va yangi quvvatlar barpo etildi. Ayni vaqtda kichik shaharlarda aholini ish bilan ta'minlash imkonini beradigan, yirik sanoat korxonalari bilan kooperatsiya asosida tashkil etiladigan kasanachilikni jadal rivojlantirishga alohida e'tibor qaratildi.

O'zbekistonda kichik shaharlar bilan posyolkalarning soni tobora ko'payib ketganligi bois urbanizatsiya jarayoni sust kechmoqda. Sanoat va infratuzilma ob'ektlarining barqaror rivojlanishini ta'minlash uchun mahalliy moliyaviy resurslar hamda shahar hokimliklarining vakolatlari cheklangan. Iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida yuqori malakali mutaxassislar va ishchilar etishmaydi. Har bir shahar bo'yicha uzoq muddatli ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyalarining qisman mavjudligi, mahalliy hokimiyat organlari tomonidan shahar aholisining talab va ehtiyojlari e'tiborga olinmasligi, investitsiya loyihalarini tayyorlash va amalga oshirishda alohida toifadagi shaharlar uchun xos bo'lgan xususiyatlar etarlicha hisobga olinmasligi, shaharlar, ayniqsa, katta va yirik shaharlar aholisi sonini hisobga olish bo'yicha statistik hisobotlarda xatoliklarning borligi ham ushbu omillar qatoriga kiradi" [8].

Kichik shahardagi hayot o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ya'ni kichik shaharlarda rivojlanish dinamikasi nisbatan kichik o'lchamlarda o'rnatiladi. Shu bilan birga, kichik shaharlarda hayot darajasi past, ishga joylashish va kasb tanlash imkoniyati kam, natijada aholi (birinchi navbatda, yoshlar) katta shaharlarga chiqib ish topishga harakat qiladilar. Kichik shaharlarda yirik korxonalarni qurish sarmoyadorlar uchun foydali emas. Ya'ni, kichik shaharlarda zarur infratuzilma, yo'llar, elektr energiyasi va boshqa sharoitlar etarli darajada mavjud emas. Kichik shaharlarda aholining o'rtacha daromadlari pastligi uning to'lov qobiliyati pastligini anglatadi, bu esa o'z navbatida, kichik biznesni, ayniqsa, ijtimoiy xizmatlar sohasini bilvosita rivojlanishiga to'sqinlik qiladi. Shu boisdan ham mamlakatimizning barcha hududlarida katta va kichik shaharlar o'rtasidagi aloqalarini mustahkamlashi zarur. Demak, bu ishlarni mavjud ijtimoiy-iqtisodiy infratuzilmalarni rivojlantirish, turli darajadagi iqtisodiy klasterlarini takomillashtirish, savdo va xizmat ko'rsatish kooperativlarini qo'llab-quvvatlash, ishlab chiqarish sohasida innovatsiyalarni o'zlashtirish hamda kichik shaharlar iqtisodiyotini diversifikatsiya qilish hisobidan amalga oshirish mumkin bo'ladi.

Demak, olib borilgan ilmiy izlanishlar shuni ko'rsatadiki, mamlakatimizda mavjud kichik shaharlarda ishsizlik darajasi qishloqlardagiga nisbatan yuqori ko'rsatkichni namoyon etmoqda. Ayniqsa, aholining uy-joy bilan ta'minlanganlik darajasi, infratuzilma, ishlab chiqarish, xizmat turlari yo'lga qo'yilishi va boshqaruvdagi muammolar tufayli kichik shaharlarning rivojlantirish ancha qiyin kechmoqda. Bizning fikrimizcha, kichik shaharlarning rivojlanishini quyidagi mezonlar orqali tasvirlash maqsadga muvofiq: birinchidan, ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning markazida kichik shahar aholisi va ularning turmush darajasini yaxshilash; ikkinchidan, kichik shaharlar taraqqiyotini atrof-muhit muhofazasi masalasi bilan uzviylikda rivojlantirish; uchinchidan, kichik shaharlarning funksional tuzilmalari va ularning aholisi ehtiyojlarini inobatga olgan holda ishlab chiqarish infratuzilma ob'ektlarini yangi talablar asosida bunyod etish; to'rtinchidan, shaharlarning tipologik birligiga muvofiq muhim investitsiyalarni jalb qilish va xorijlik sarmoyadorlar bilan qo'shma korxonalarini tashkil etish; beshinchidan, kichik shaharlar klassifikatsiyasi va tipologiyasini takomillashtirishda ishlab chiqarish hamda xizmatlarning bozor yo'nalishida zamonaviy ixtisoslashuv talablariga alohida e'tibor qaratish shular jumlasidandir.

Kichik shaharlarda ijtimoiy infratuzilmani boshqarish va rivojlantirish bo'yicha sotsiologik tadqiqotlarni takomillashtirish mexanizmlari, kichik shaharlarni ijtimoiy takomillashtirishda ilm-fan, texnika va innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish imkoniyatlari, mamlakatimizning kichik shaharlarida ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot va ijtimoiy himoyani rivojlantirish strategiyasiga doir ilmiy-amaliy taklif hamda tavsiyalarni ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratilgan. Kichik shaharlardagi yangi iqtisodiy tizimni yanada takomillashtirish va ratsional boshqarish, ularning ishtirokchilari uchun faoliyat yuritishdagi munosib shart-sharoitlarni yaratish, innovatsiyalarni olib kirish, jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy hayotini farovonlashtirishga xizmat qiluvchi investitsiyalar jalb qilinishini yanada faollashtirish, aholi daromadini oshirish dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Yuqorida qayd etilgan fikrimizni o'tkazilgan sotsiologik tadqiqot natijasida isbotlashga harakat qilamiz. Quyidagi "Sizning shaharchangizda aholining bandlik darajasini holatini qanday belgilaysiz" degan savolga respondentlarning deyarli to'rtida bir qismi 24,7 %i o'rta ma'lumotli aholi ishsiz, 23,1 %i aholining katta qismi ishsiz migratsiyada qatnashadi, 21,6 %i oliy ma'lumotli uchun ish o'rni mavjud, 13,4 %i barcha aholi qatlami ish bilan ta'minlangan, faqat 9,1 %i esa o'rta va yoshi katta aholi ish bilan ta'minlangan deb qayd etgan. Biroq yoshlar ishsiz, degan fikrni bergan bo'lsa, qolgan respondenlar turli javob variantini bildirgan. Xulosa qilib aytganda, hozirda kichik shaharlar aholisi uchun ishsizlik masalasi eng jiddiy ijtimoiy muammolardan biri sifatida saqlanib qolmoqda. Va bu holatda yoshlar xorijiy davlatlarga chiqib ishlashga majbur bo'layotgani aniqlandi.

Bugungi kunda ko'pgina viloyatlardagi kichik shaharlar infratuzilmasini qoniqarli darajada deb bo'lmaydi. Demak, ayrim viloyatlarda yuqori rivojlanishni kuzatsak (savdo, oziq-ovqat sanoati), boshqalarida turg'unlik, hatto degradatsiya holatlarini ham kuzatishimiz mumkin.

Respondentlardan kichik shaharlarda kasalliklarni profilaktika qilish, barvaqt aniqlash, patronaj va sog'lom turmush tarzini shakllantirish bo'yicha ishlar samaradorligining pastligi muammosiga munosabati so'ralganda, 45,5 %i hududlardagi vrachlar malakasi va salohiyati past, 23,1 %i poliklinika va kasalxonalarda tibbiy-texnik anjomlar yetishmaydi va eskirgan, 8,4 %i esa oylik maoshlari kamligi tufayli kadrlar qo'nimsizligi mavjud degan fikrni bergan. Demak, bugungi kunda ham kichik shaharlardagi tibbiy muassasalar faoliyati va xizmat ko'rsatish sifatini to'liq yuqori darajada, deb ayta olmaymiz. Demak, respondentlar va ekspertlarning fikriga ko'ra, ba'zi kichik shaharda kiyim tikish atelei yetishmovchiligi sezilsa, boshqasida uy-joy jihozlari ta'mirlash ustaxonalari, yana boshqasida jamoat transporti va kutubxonalar, to'rtinchisida esa go'zallik salonlari, maishiy va kommunal xizmat ko'rsatish kabi tizimlarda muammolar mavjudligini ko'rishi mumkin.

XULOSA

Yangi O'zbekistonda yangi islohotlar doirasida shaharlar ijtimoiy infratuzilmasini takomillashtirishga yo'naltirilgan davlat dasturlarining ishlab chiqilishi va amaliyotgan joriy etilishi kichik shaharlarni ijtimoiy infratuzilmasi menejmenti hamda takomillashuvi omili sifatida xizmat qiladi. Shuningdek, kichik shaharlar ijtimoiy infratuzilmasini boshqarish va rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirishda 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning

taraqqiyot strategiyasida qo'yilgan vazifalarni amaliyotga joriy qilinishi mustahkam poydevor vazifasini o'taydi. Kichik shaharlarda boshqaruv sohasini takomillashtirish 2 ta yo'nalishda amalga oshirildi. Birinchisi, raqamlashtirish va yuqori texnologiyalarni joriy qilish. Ikkinchi yo'nalish esa kompleksli resursli ta'minot yo'nalishi bo'yicha funksional diagnostika, ijtimoiy pasportlashtirish, ijtimoiy prognozlashtirish, hududiy o'zini-o'zi boshqarish organlarini faollashtirish, ijtimoiy sheriklik texnologiyalarini o'z ichiga qamrab oldi.

Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar kontekstida kichik shaharlar ijtimoiy infratuzilmasini boshqarish va rivojlantirish tendensiyalarining individual hamda unikal boshqaruv xususiyatlarini integrativ tadqiq qilinishi mazkur jarayonlar samaradorligi baholash mezonlarini ishlab chiqishga turtki bo'ldi. Masalaga bunday ilmiy yondashuv kichik shaharlarda ixtisoslashgan tibbiy muassasalar, sport infratuzilmasi, kutubxonalar, piyodalar va velosiped yo'laklari, ekoparklar, yangi yo'llar, logistika tarmoqlarini ishga tushirish, elektr va gaz tarmoqlarini modernizatsiya qilishda Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi kichik shaharlarning rivojlanish intensivligini ta'minlovchi drayver ekanligini ilmiy asoslashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar/ Литература/ References:

1. <https://aniq.uz/uz/statistika/dunyo> (20.02.2024)
2. URL: United Nations, Department of Economic and Social Affairs, Population Division. World Population Prospects 2019-<https://population.un.org/wpp/>, Дунё бо'йича жонли статистика URL:<https://aniq.uz/statistika/dunyo>
3. Becker H. Discontinious change and generational contracts. – London, 2000. – P. 136
4. Гидденс Э. Социология. – Тошкент: Шарк, 2002. – Б. 846
5. Бурде П. Социология социального пространства. – М.: Изд. Алетейя, 2007. – С. 80-278.
6. Амир Темур. Темур тузуклари. – Тошкент: Наврўз, 1992. – Б. 63.
7. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 21.12.2018 йилдаги “Эркин иқтисодий зоналар фаолиятини мувофиқлаштириш ва бoshqariш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-5600- сонли Фармони.
8. URL: <http://www.biznes-daily.uz/ru/gazeta-birja/62940-urbanizatsiya-taraqqiyot-lokomotivi>.

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

1-МАХСУС СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ
СПЕЦИАЛЬНЫЙ НОМЕР-1

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES
SPECIAL ISSUE-1

MAQOLADA KELTIRILGAN DALILLARNING TO'G'RILIGI UCHUN MUALLIF MAS'ULDIR | АВТОР НЕСЕТ ОТВЕТСТВЕННОСТЬ ЗА ДОСТОВЕРНОСТЬ ФАКТОВ ИЗЛОЖЕННЫХ В СТАТЬЕ

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000